

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

*Toshkent kimyo Xalqaro universiteti,
boslang'ich ta'lim metodikasi bo'limi
magistratura mutaxassisligi buiycha
1-kurs talabasi
Matjanova Amangul Janabaevna*

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda interfaol usullarni qo'llash, ularda intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda interfaol metodlarni ahmiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, iqtidor, iste'dod, intellekt, aqliy rivojlanish, o'zligini anglashi, talant, intellektual ijodiy salohiyat

KIRISH.

Zamonaviy ta'limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg'or texnologiyalarni hamda o'quv-tarbiya jarayonining didaktik ta'minotini yaratish, ta'lim mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish kerak.

Boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalarini, didaktik o'yinlar va interfaol usullardan foydalanishimiz darkor.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'naliishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnama, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rinn tutadi. Chunki boshlang'ich sinfdanoq bolalarga savodxonlikni o'rgatish bilan birga axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari berib boriladi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga, o'z fikrini bayon etishga o'rgatish, mustaqil ishslash, fikirlab qaror chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rinn tutadi. Bolalar boshlang'ich sinflardanoq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari uchun darslarda interfaol usullardan

foydalish tavsiya etiladi. Interfaol metod — ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaсидаги faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari — norasmiy babs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalansha ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tiborqaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Interfaollik, bu — o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi — o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik — o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi — o'qituvchi, o'quvchi — o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi.

Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat — dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ — ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, media — ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonlarida Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlii) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiradi, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.



«Yalpi fikriy hujum» metodi

Mazkur metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20, 40 va 60) nafar ta'lim oluvchilardan iborat guruh (sinf)larda qo'llash mumkin. Ushbu metod ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar ta'lim oluvchilarni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiylar xal etilishi lozim bo'lган turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiylar xal etilgach, bu haqda guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh

tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg`ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg`ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

Arra metodi (E.Aronson,1978)

Pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o'quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha «mutaxasis»ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) «mutaxassis» bo'lishi shart, mazkur «mutaxassis»lar o'zlari egallagan bilimlarni xuddi «arra» tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. 1986-yili R.Slavin «arra» metodini qisman o'zgartirib «arra-2» metodini yaratdi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari o'quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida o'quvchilar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib «mutaxasis»ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi «mutaxassis»lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi.

O'quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o'tqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a'zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to'plagan guruh g`olib sanaladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: —Саностандарт|| нашриёти, 2015. –81-б.
2. Турдиева М.Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш.– Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2008.–38-42-б.
3. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар – ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Uzluksiz ta'lim ж.– Т.: 2006. 6-сон. –102-б.